

## FITRATNING “ABULFAYZXON” DRAMASINI O‘QITISHDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

*Choriyev Umar*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limda axborot texnologiyalarini tatbiq etishning ahamiyati, Fitratning “Abulfayzxon” dramasi o'qitishda multimediyaviy vositalaridan foydalanish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiyalar, viktorina, forum, telekonferensiya, Publisher, Adobe Photoshop, CorelDraw, Fitrat, dramaturgiya

Bugungi kunda barcha sohalar singari ta'lim sohasini ham zamonaviy axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ta'limda axborot texnologiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish o'rganilayotgan mavzuni samarali o'zlashtirishga asos bo'ladi. Buning uchun elektron ta'lim resurslaridan oqilona, samarali foydalanish malakalariga ham ega bo'lish talab etiladi. Zamonaviy AKT muhitida o'qitishni internet resurslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internet tarmog'i ta'lim xizmatlarining juda katta qamrovini tashkil etadi. Elektron pochta, virtual kutubxona va muzeylar, ta'limiy portal va saytlar, mavzuli blog va forumlar, telekonferensiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar, zamonaviy ta'limning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ushbu ta'lim xizmatlaridan ham darsda, ham darsdan tashqari faoliyatda foydalanish o'qituvchini ta'lim jarayonining menedjeriga aylanishga undaydi. Fanni zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitishda ta'lim samaradorligiga yordam beradigan taqdimotlar, videodarslar, interaktiv mashqlar, test topshiriqlari, lug'atlardan namunalar tayyorlanishi taqozo qilinadi. Bu esa o'z navbatida **Microsoft Word, Microsoft Power Point, Excel, Microsoft Office Publisher, Adobe Photoshop, CorelDraw, AutoPlay Media, Ispring Suite** va boshqa amaliy va mualliflik dasturlari imkoniyatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi.




*“Ta’limda axborot texnologiyasi - bu “o’quvchi - kompyuter o’rtasidagi muloqotdir, o’qituvchi esa - uni boshqaruvchi. Zamonaviy axborotlarga boy materiallar, vositalar bilan darsni boshqarish o’qituvchi mehnatini samarali qiladi”<sup>1</sup>.*

Dars jarayonlarini ko’rgazmali va samarali tashkil etish vositalaridan biri multimediya vositalaridir.

**“Multimedia** (multimedia - ko’p muhitlilik) - bu kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko’rinishiga ega bo’lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animatsiya, video va h.k.) va turli hil tashuvchilarda mavjud bo’lgan (magnit va optik disklar, audio va video-lentalar va h.k.) axborotdan foydalanish bilan bog’liq sohasidir”<sup>2</sup>.

Multimediya bu:



Foydalanuvchiga interfaollikni taqdim etadigan ushbu texnologiyalardan adabiyot darslarida ham samarali foydalanish mumkin. Til va adabiyot fani o’qituvchisi, o’rganilayotgan mavzuni, bo’limni o’qitish metodikasini ishlab chiqishi va ta’lim-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalarining o’mi hamda ahamiyatini belgilab olishi taqozo qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida, shu jumladan o’rta

<sup>1</sup> Muhammedova S. Abdullayeva D va boshqalar. O’zbek tili va adabiyoti ta’limi da zamonaviy axborot texnologiyalari . Toshkent-2020 115-b.

<sup>2</sup> Muhammedova S. Abdullayeva D va boshqalar. O’zbek tili va adabiyoti ta’limi da zamonaviy axborot texnologiyalari . Toshkent-2020 150-b

maktabda, o'qitish natijalarning samarasi foydalanilgan vositalarga bog'liqdir. "Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rmishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi".<sup>3</sup>

### An'anaviy vositalar

- doska, bo'r, darslik, ko'rgazma, texnik audiovizual


### Yangi vosita

- anketa, test, tayanch sxema va blokklar, multimedia vositalari, videoproektorlar, interaktiv doskalar

Ilm - fan rivoji uchun ijodkor va olimlar faoliyatini o'rganish, ularning serqirra ijodini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, mamlakatning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishi, intellektual taraqqiyoti uchun ham ularning faoliyati muhim ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida o'quv dasturlari va rejalarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini tashkil etishda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda.

O'zining serqirra faoliyati bilan ilm - fan sohasiga o'z hissasini qo'shgan ijodkor Abdurauf Fitratdir.

<sup>3 3</sup> Muhammedova S. Abdullayeva D va boshqalar. O'zbek tili va adabiyoti ta'limi da zamonaviy axborot texnologiyalari . Toshkent-2020 .178- b



Maktabda Fitratning ijodini o'qitishda multimediya vositalaridan foydalanish qay tartibda amalga oshirilishi ustida tadqiqotni davom ettiramiz. Bunda Fitratning hayoti va ijodi xususida to'xtali o'tishdan yiroqmiz. Maktab darslilarida 8,10,11 – sinflarda fitratning ijodi o'rganilishiga dars soatlari ajratilgan. 8- sinf darsligida Fitratning “Mirrix yulduziga”, “Go‘zalim, bevafo gulistonim” she’rlari o‘quvchilarga mustaqil yod olish uchun vazifa sifatida berilgan. Ushbu drama amaldagi 11- sinf va 2022 - yilda nashr etilgan 10- sinf loyiha adabiyot darsligiga ham kiritilgan.


Fitratning dramaturgiya sohasida “O‘g‘uzxon”, “Chin sevis”, “Abulfayzxon”, “Shaytonning tangriga isyoni”, “Arslon” kabi namunalari yetakchi o'rinni egallaydi. Ular orasida “Abulfayzxon” dramasi alohida e'tirofqa loyiq. Drama 1924-yilda chop etilgan. Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” fojiasi ma'lum tarixiy davr asosida shakllantirilgan bo'lib, keskin voqealar tizmasidan iborat. Adabiy jarayon obrazlararo konflikt asosiga qurilgan. Har qanday tarixiy vaziyat badiylashtirilganda bevosita badiiy to'qimalarga murojaat qilinadi, muhim tarixiy shaxslarning ma'naviy qiyofasidagi musbat va manfiy qutblar ana shu badiiy to'qimalar vositasida yanada oydinlashadi. Fitrat qalamiga mansub “Abulfayzxon” dramasi ham badiiyatga tegishli bunday xususiyat o'zining betakror ifodasini ko'rsatgan.

Ushbu asar o'zining mukammalligi bilan XX asr adabiyotida alohida o'rin tutadi. Asarni o'qish jarayonida biz butun boshli bir tarix va bir sulola tanazzuliga guvoh bo'lishimiz mumkin. „Abulfayzxon“ o'zining shekspirona epik ko'lami bilan ajralib turadi. Unda Fitrat Shekspir pyesalariga xos qabartma tip va xarakterlarni yaratdi. Zulmga asoslangan saltanat tojining otadan bolaga o'tib kelishi natijasida paydobo'luvchi qonli oqibatlarni haqqoniy tasvirladi. Mazkur pyesa asosida Ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili bo'lmish Abulfayzxon saltanatining tanazzuli (XVIII asr) natijasida Buxoroda Mang'it amirlarining saltanat tepasiga kelishlari bilan bog'liq tarixiy voqealar yotadi. Fitratning o'lis tarixiy voqeaga nazar solishdan maqsadi: „Podsholik qon bilan sug'orilgan bir



og‘ochdir, qon oqib turmagan yerda bu daraxtning qurib qolishi aniqdir“ degan falsafa bilan yashagan va o‘zi ham shu g‘ayriinsoniy falsafaning qurboni bo‘lgan Abulfayzxon singari qonxo‘r podsholarni tarix qa‘ridan olib chiqib, xalqqa ko‘rsatishdir. Fitrat bu asari bilan bolsheviklar tuzumi XX asrning Abulfayzxonini – Stalinni yaratishi va uning bepoyon mamlakatni qonga botirishini bashorat etdi. Shu ma‘noda mazkur tragediya Fitrat zakosi bilan yaratigan xalqni ogohlantiruvchi asardir. Fitrat bu asari bilan o‘zbek adabiyotida tragediya janriga asos solib, mazkur janrning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. “Abulfayzxon”dagi voqealar besh parda ichida joylashtirilgan. Unda har bir pardada kechgan voqealar tarixan parchada kechgan voqealar tarixan necha yillik yoki oylik voqealarni qamrab olishdan qat‘y nazar asosan syujet vaqtini bir kuni tashkil qiladi. Demak, muallif vaqt va harakat nisbatida oddiy yo‘l tutgan. Tarixan bir yil ichida (1739-1740) kechgan voqealar bir kunga joylashtiriladi, yana navbatdagi tasvirga olinishi kerak bo‘lgan davr voqealari bir kechayu kunduzga joylashtiriladi, shu kabi besh parda davomida besh kunlik hodisalarni ko‘rsatish orqali Fitrat 1739-yildan 1747-yilgacha bo‘lgan davirdagi Buxoro xonligidagi keskin mojarolarni berishga uringan. Tarixiy voqealarni tanlashda tam shekspirdan o‘zgacharoq yo‘l tutgan, ya‘ni millat va mamlakat tarixi uchun muhim va tahlikali sanalgan 1739, 1740, 1747-yillardagi ayrim voqealargina tanlab olinib, uning asosida syujet yaratilgan va bundan kelib chiqib sujet vaqti ham besh kun (ya‘ni besh parda davomida) qilib belgilangan. Fitratning “Abulfayzxon” fojiasidagi pardalar o‘rtasida ancha voqealar bo‘lib o‘tganini birinchi parda bilan ikkinchi, uchunchi va boshqa pardalar orasidagi voqealar orqali anglaymiz. Bunday voqealar girdobida “Abulfayzxon saltanati qoyadan jarlikka qarab shiddat bilan qulayotgandek taassurot qoldiradi”. Uning «Abulfayzxon» fojiasi o‘zbek adabiyoti tarixida katta voqea bo‘ldi. Muallif bu asarni «Buxoro o‘lkasining tarixidan olingan besh pardali fojia» deb ataladi.

Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasida o‘zbek adabiyotida mamlakatni idora qilishda faqat o‘z shaxsiy manfaati-yu maishatdan boshqani bilmagan hokim va beklarning tarixiy taqdiri inqirozdan iborat ekanligi yuksak g‘oyaviy va madaniy saviyada tasvirlab berilgan



**“Abulfayzxon” dramasini o‘qitishda ta’lim berish vositalari**

1. Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasining to‘liq varianti,
2. Kompyuter
3. Proyektor
4. Monitor
5. Slaydlar
6. Internet ma’lumotlari
7. Ko‘rgazmalar
8. Vatman
9. Marker
10. Tarqatma didaktik materiallar
11. Audiokolonka
12. Rag‘bat kartochkalari.

**Ta’lim berish sharoiti** esa texnik ta’minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya hisoblanadi.

Ushbu dramani o‘qitish jarayonida sinf o‘quvchilarini guruhga bo‘lib, quyidagi multimediyali topshiriqlarni tashkil etib borish mumkin.

**1- topshiriq.** Kompyuter orqali monitoringda “Abulfayzxon” dramasi spektakli namoyish etiladi:



Namoyish etilgan parcha orqali quyidagi jadval ustida ishlanadi. Unda asar qahramonlariga ta’rif yoziladi.


**“Abulfayzxon” dramasi qahramonlari haqida**

Obrazlar	Ta’rifi
<b>Xayol obrazi</b>	Asarning asosiy poetik g‘oyasini to‘la namoyon qiluvchi bu obraz o‘z navbatida muallifning yuksak badiiy-estetik tafakkuri mahsuli. U asarning dramatik pozitsiyasini kuchaytiradi, estetik ta’sir doirasini kengaytiradi. Asar badiiyatiga singdirilgan asosiy ziddiyat –toj-u taxt uchun kurash va ezgulik, insof, diyonat, adolat g‘oyalari o‘rtasidagi kurash Xayol obrazida o‘z yechimini topadi va uning monologimuallifning yakuniy xulosasi sifatida gavdalanadi.
<b>Abulfayzxon</b>	Abulfayzxon 1711 -1747-yillari Buxoro taxtining egasi bo‘lgan ashtarxoniyalar sulolasiga mansub hukmdorlardan. Uning uquvsizligi, maishatni

	mansabdorlik mas'uliyatidan yuqori bilishi va atrofidagi xoin amaldorlariga ishonishi natijasida mamlakat fojiaga yuz tutdi. 1. Mustaqil fikrga ega bo'lmagan xon 2. Davlat boshqaruvini qo'l ostidagi qullariga ishonib qo'ygan shaxs
Nodirshoh	1. Eron shohi 2. Rizoqulixonning otasi
Abdumo'min	1. Abulfayzxonning o'g'li 2. Rahimbiy tomonidan zaharlangan qahramon
Hakimbiy	1. Eron shohi Nodirshoh bilan til biriktirgan amaldor 2. Eron qo'shinlarini Buxoroga kiritgan Abulfayzxonni taxtdan tushirtirgan amaldor
Rahimbiy	1. Hokimiyat uchun Nodirshoh bilan til biriktirgan shaxs 2. Abulfayzxonni, o'g'illarini ham ham o'ldirtirib yuborgan shaxs
Mir Vafo,	1. Buxoro tarixini yozgan inson 2. Abulfayzxonning yaqin kishilaridan ikkiyuzlamachi, tilida xonga sodiq, aslida esa Hakimbiyga sotilgan xoin sifatida faoliyat ko'rsatadi
Ulfat,	Abulfayzxonning otasi tomonidan asrab olingan qul 2. Abulfayzxonni qutqarish uchun lahm kovlab kelgan qahramon
Qozi Nizom,	; Qozi Nizom - bir qaraganda Abulfayzxonga sadoqatli, barcha diniy qonun-qoidalarni, shariat taqozosini xonning manfaatiga yo'naltiradi, ammo vaziyatga qarab tovlanadi - xon vafotidan so'ng o'z mullachiligini Rahimbiyga bo'ysundirib, islomiy aqidalarni uning manfaati yo'liga xizmat qildiradigan ikkiyuzlamachi qozikalon sifatida gavdalanadi.
Ibrohimbiy	1. Abulfayzxonga haqiqatni ayta olgan amaldor 2. Rahimbiyga ham haqiqatni ayta olgan Fitratning qalb so'zlarini namoyon qilgan shaxs
Farhod otaliq	1. Abulfayzxon tomonidan o'ldirtilgan qahramon 2. Qizini Abulfayzxonga berishni istamagan amaldor

**2- topshiriq.** “Abulfayzxon” dramasi audio kalonka orqali eshittiriladi. Bunda guruhlar eshittirilgan nutqni qaysi obrazga tegishli ekanini topadilar. Bu usulda ham multimediya vositalaridan samarali foydalaniladi.





**3-topshiriq.** O‘quvchilar kompyuter qarshisida o‘tirib, “Abulfayzxon” dramasi asari asosida tuzilgan test savollarini yechish topshirig‘I bajariladi.

**4-topshiriq.** Slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo‘yicha asosiy nazariy ma‘lumotni tushuntirib beriladi. Suhbatda faol ishtirok etadilar. Slayd taqdimotlarini tayyorlashda Power point dasturidan samarali foydalaniladi.



Slayd taqdimotidan keyin tezkor savol-javob o‘tkaziladi. “O‘yla! Izla! Top!” intellektual o‘yini savollari namunalari:

1. Kim Rahimbiyga uning bolalariga taxt yuqmasligini, u Abulfayzxon dan ham ko‘proq haqsizlik qilayotganini aytgan? **Ibrohimbiy**

2. “Devona emas, tog‘riman. To‘g‘rilikning devonaliqdan da yomonroq natija berganini bilaman”. Bu fikr kimga tegishli? **Ibrohimbiy**

3. “Tangridan boshqa kimsam qolmadi. Hamma iskanjalar pul uchun ekan” deya kim aytgan? **Abulfayzxon**

4. “Bir o‘lkani olmoq uchun eng yaxshi chora-shu o‘lkaning o‘zidan do‘stlar topmoqdir” degan kim? **Nodirshoh Rizoqulixon**

5. “Abulfayzxon” dramasi da xayol kim? **Siyovush**

6. Dramada “Biz xon hazratlariga o‘zimizni qurbon qildik. Endi nomusimizni ham so‘ramasinlar” deya kim aytgan? **Farhod otaliq**

7. Dramada Abulfayzxon ga “Bu kecha tushimda payg‘ambarni ko‘rdim, sizni so‘rab yubordilar” deya chopon kiygan amaldor kim? **Qozi Nizom**



8. Dramada “Tuhfai xoniy” degan tarixiy asar yozgan kim? **Mir Vafo**

9.“Abulfayzxon” dramasida “Abulfayzxon tomonidan Meni ota kabi asrag`on” deya aytilgan shaxs kim? **Farhod otaliq**

10.“Abulfayzxon” dramasi qachon chop etilgan? **1924-y**

12.“Podshohlik-qon bilan sug`oriladigan og`och” degan fikr kimga tegishli?


**Ulfat**

13.Dramada Abulfayzxonning otasi olib kelgan qullar kimlar? **Ulfat, Davlat**

14.“Abulfayzxon”dramasida Abulfayzxon kimni Farhod otaliqning o`rniga o`tqazadi? **Ibrohimbiy**

15.Dramada Abdumo`min necha yashar edi? **15 yosh**

O`qituvchi mavzuni slayd orqali “Klaster” usulidan foydalanib tushuntirishda davom etadi:



**5-topshiriq.** Ekranda “Abulfayzxon” dramasiga mansub detallar ko`rsatiladi. O`quvchilar bu buyumlarga ta`rif beradilar va u bilan bog`liq obraz va syujetlarni izohlaydilar.

**“Detallar so`zlaganda” metodi:**



O'quvchilar "Abulfayzxon" dramasi o'rganish jarayonida adabiy nutqiy va badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish orqali o'quvchi:

- drammi ifodali o'qiy oladi, ularning ijtimoiy hamda badiiy-estetik mazmun-mohiyatini tushunadi;
- anglaydi va idrok eta oladi;
- asar syujetida aks etgan nutq tiplarini, tasvir, mulohazalarni o'zgalarga tushuntirib bera oladi;
- tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildira oladi;
- shaxs sifatida adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri va tushunarli so'zlay oladi;
- o'z fikrini boshqalarga yetkaza oladi, asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlariga munosabat bildira oladi;
- dramadan parcha yod olib, uni rolli ijro eta oladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda nafaqat adabiyot, balki barcha fanlar uchun belgilangan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ularning mavzuni yaxshiroq tushinishlari va chuqur bilim olishlariga erishiladi.

Fitrat jonkuyar, o'z millati ravnaqi uchun jon kuydiradigan shaxs. Shuning uchun ham Abulfayzxon dramasi asosida jamiyatimizni parokanda qiladigan sotqinlik, xudbinlik va maishatparastlik kabi illatlarni qoralaydi. Insoniyatni ogohlikka chorlaydi. Fitratga qadar o'zbek adabiyotida bir necha dramatik asarlar yozilgan. Biroq jahon talabiga javob bera oladigan milliy ruh va milliy g'oya bilan sug'orilgan, teran qahramonlar aks etgan bu turdagi yetuk asarlarning muallifi sifatida Fitrat o'zbek dramaturgiyasining asoschisi hisoblanadi. Fitrat elni ozod va obod ko'rish dardi bilan yonib yashadi. Yoshlarni

Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda ona tili va badiiy adabiyotga nisbatan muhabbatni shakllantirishda Abdurauf Fitratning asarlari katta ahamiyatga ega. Darhaqiqat, Fitrat iste'dodli ijodkor, millat ozodligi uchun kurashgan jadid yozuvchidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimov B., Milliy uyg'onish, T., 2002.
2. Qosimov B., Fitrat (chizgilar). Sharq yulduzi, 1992, 10-son, 170-bet.
3. Qosimov B., Fitrat. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1991, 10-son.
4. G'aniyev I., Fitrat, e'tiqod, ijod, T., 1994;
5. G'aniyev I., Fitratshunoslik, Buxoro, 1994;
6. G'aniyev I., Fitratning tragediya yaratish mahorati. T., 1994.
7. Boltaboyev H., Abdurauf Fitrat, T., 1996;
8. Boltaboyev H., Fitratning ilmiy merosi, T., 199
9. B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova "Adabiyot" 11-sinf uchun darslik 2-jild Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2018
10. A.Fitrat. "Abulfayzxon" Toshkent-2000.
11. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar, I- IV jildlar. –T.: Ma'naviyat. 2006.
12. Umarova M. Fitratning "Abulfayzxon" fojiasida badiiy vaqt talqini // Til va adabiyot ta'limi. –Toshkent, 2009. 4-son. 34-46-bet.
13. Muhammedova S. Abdullayeva D va boshqalar. O'zbek tili va adabiyoti ta'limi da zamonaviy axborot texnologiyalari . Toshkent-2020 .178- b
14. Keldiyeva N." Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon" dramasi o'rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish" nomli maqolasi 2022.
15. Saburova U."Abulfayzxon" dramasi o'zbek adabiyotida tutgan o'rni" nomli maqolasi.-2022.